e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/bd1b3w61

ZIYORATGOH VA QADAMJOLARNING ZIYORAT TURIZMI RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI VA O‘ZGARISHLAR (QASHQADARYO VOHASI MISOLIDA)

Xayitova Feruza Buxarovna
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti, dotsent.
e-mail: feruzahayitova84@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0009-0005-3995-8878

Annotatsiya.
Globallashuv va integratsiya jarayonlari kuchayib borayotgan XXI asrda nafaqat dunyodagi mintaqalar va xalqlarning, balki Yangi O‘zbekistonda ham ziyoratgoh va qadamjolarga bo‘lgan munosabat o‘zgarib bormoqda. “Ziyorat” va “turizm” tushunchalari turli ko‘rinishdagi faoliyatni ifodalasa-da, ular o‘rtasida o‘zaro bog‘liq umumiy jihatlar ham mavjud. Ayniqsa, hozirgi kunda ziyorat jahon sayyohlik tizimida alohida sayohat turi sifatida e’tirof etilishi bilan ajralib turadi. Xalqaro tasniflash standartlariga ko‘ra, u ziyorat turizmi sifatida qabul qilinib, dunyo aholisi orasida ham shu mazmunda tushunib borilmoqda.

Kalit so‘zlar: ziyorat, qadamjo, ziyoratgoh, turizm, ziyorat turi, ziyorat ekskursiyasi, zamonaviy globallashuv.

РОЛЬ СВЯТЫНЬ И МЕСТ ПАЛОМНИЧЕСТВА В РАЗВИТИИ ПАЛОМНИЧЕСКОГО ТУРИЗМА И ПРОИСХОДЯЩИЕ ИЗМЕНЕНИЯ (НА ПРИМЕРЕ КАШКАДАРЬИНСКОГО ОАЗИСА)

Хайитова Феруза Бухаровна
Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, доцент.

Аннотация.
В XXI веке, в условиях усиления процессов глобализации и интеграции, меняется отношение к святыням и местам паломничества не только среди народов и в регионах мира, но и в Новом Узбекистане. Хотя понятия «паломничество» и «туризм» обозначают различные виды деятельности, между ними существуют определённые общие черты, обеспечивающие их взаимосвязь. В настоящее время паломничество всё чаще рассматривается как особый вид путешествий в мировой туристической системе. В соответствии с международными классификационными стандартами оно определяется как паломнический туризм, и такое понимание постепенно распространяется среди населения мира.

Ключевые слова: паломничество, священное место, святыня, туризм, виды паломничества, паломническая экскурсия, современная глобализация.

THE ROLE OF SHRINES AND SACRED SITES IN THE DEVELOPMENT OF PILGRIMAGE TOURISM AND RELATED CHANGES (A CASE STUDY OF THE KASHKADARYA OASIS)

Xayitova Feruza Buxarovna
National Pedagogical University of Uzbekistan named after Nizami, Associate Professor.

Abstract.
In the 21st century, amid the intensification of globalization and integration processes, attitudes toward shrines and sacred sites are changing not only among regions and peoples around the world but also in New Uzbekistan. Although the concepts of “pilgrimage” and “tourism” represent different forms of activity, they share certain common features that connect them. In particular, pilgrimage is increasingly recognized as a distinct form of travel within the global tourism system. According to international classification standards, it is identified as pilgrimage tourism, and this understanding is gradually becoming more widespread among the world's population.

Keywords: pilgrimage, sacred site, shrine, tourism, types of pilgrimage, pilgrimage excursion, modern globalization.

Kirish. Qashqadaryo vohasi O‘zbekistonning tarixiy-diniy merosga boy hududlaridan biri bo‘lib, bu yerda buyuk allomalar, tasavvuf namoyandalari, avliyolar va islom tarixida muhim o‘rin tutgan shaxslar nomi bilan bog‘liq ko‘plab ziyoratgohlar mavjud. Qashqadaryo vohasida ziyorat turizmining shakllanishi uzoq tarixiy jarayonlar bilan bog‘liq. Hududda islom dinining tarqalishi ham bu jarayonda muhim o‘rin tutgan. Globallashuv va integratsiya jarayonlari kuchayib borayotgan XXI asrda nafaqat dunyodagi mintaqalar va xalqlar, balki Yangi O‘zbekistonda ham ziyoratgoh va qadamjolarga bo‘lgan munosabat o‘zgarib bormoqda. 2019-yil 19-dekabrda BMT Bosh Assambleyasining yalpi majlisida “Markaziy Osiyoda barqaror turizm va barqaror rivojlanish” nomli maxsus rezolyutsiya qabul qilindi. Shuningdek, YUNESKOning “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha xalqaro konvensiya”sida jamiyatda mavjud bo‘lgan urf-odatlar, marosimlar va bayramlar nomoddiy madaniy merosning muhim sohalaridan biri sifatida e’tirof etildi.

ISSN 3060-5059 (Online)

Bugungi kunda jahonda shakllanayotgan ziyorat turizmining rivojlanish jarayonini ilmiy tadqiq etish doirasida muqaddas joylar va ziyoratgohlarning hududiy ta'sirini o'rganish, ularning iqtisodiy-kommunikativ belgilarini aniqlash, ziyoratgohlar bilan bog'liq urf-odat hamda marosimlarni tahlil qilish, antropologik jihatdan tarixiy va tabiiy obyektlarning mahalliy xususiyatlarini o'rganish keng targ'ib qilinmoqda. Shuningdek, ziyorat turizmi insonlarning diniy e'tiqodi, ma'naviy ehtiyojlari, tarixiy meros bilan tanishish va buyuk allomalar xotirasini yod etish maqsadida muqaddas joylar, ziyoratgohlar hamda qadamjolarga tashrif buyurishidir. O'zbekiston qadimiy tarixi, boy madaniy merosi va islom sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi bilan ziyorat turizmi rivojlangan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Ziyoratgoh va qadamjolar xalqning diniy qarashlari, tarixiy xotirasi, urf-odatlari va ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassam etadi. Ularni asrab-avaylash va turizmga jalb etish nafaqat tarixiy merosni saqlash, balki hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Hozirgi kunda Yangi O'zbekistonning qadimiy va boy tarixi, shuningdek, ziyoratgoh hamda qadamjolari, ular bilan bog'liq urf-odat va an'analari xorijliklarning yuksak e'tirofiga sazovor bo'lmoqda. Mamlakatimizda xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniy merosini tiklash hamda uni dunyo jamoatchiligiga yetkazish borasida ko'plab amaliy ishlar bajarilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 27-aprelda Pekinda BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish bilan "Bir makon, bir yo'l" xalqaro forumi doirasidagi uchrashuvda bu boradagi tashabbus ilgari surilgan edi. Jumladan, bu borada O'zbekistonning turli mintaqalaridagi ziyoratgohlarning geografik, tabiiy, ekologik, etnik va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari to'g'risida batafsil ma'lumotlarga ega bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixdan ma'lumki, Qashqadaryo vohasi qadimiy tarixi, betakror madaniyati va muqaddas ziyoratgohlari bilan mashhur bo'lgan o'ziga xos "etnografik makon"dir. Ayniqsa, so'nggi yillarda sodir bo'layotgan milliy yuksalish davrida mintaqa ziyoratgohlari tarixi va etnologiyasini ilmiy asosda tadqiq etish zarurati nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Qolaversa, Qashqadaryo vohasi O'zbekistonning qadimiy tarixiy va madaniy hududlaridan biri bo'lib, diniy-ma'naviy merosi, buyuk allomalar faoliyati bilan bog'liq maskanlari va tarixiy obidalari bilan ajralib turadi. Viloyatda ziyorat turizmini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Qashqadaryodagi ziyoratgohlar aholining diniy e'tiqodi, milliy qadriyatlari va tarixiy xotirasini saqlashda muhim o'rin tutadi. Ular mahalliy aholi bilan bir qatorda boshqa viloyatlardan va xorijiy mamlakatlardan keladigan ziyoratchilarni ham jalb etishi mumkin.

Hozirgi davrda ziyorat turizmi faqat diniy maqsad bilan cheklanmaydi. U tarixiy, ilmiy, madaniy va ma'rifiy sayohatlar bilan ham uyg'unlashmoqda. Birinchidan, ziyoratgohlar haqidagi ma'lumotlarni internet orqali olish imkoniyati kengaymoqda.

Ikkinchidan, xorijiy tillarni biladigan malakali gidlar va ekskursiya xizmatlariga talab ortmoqda.

Uchinchidan, ziyoratgohlar atrofida mehmon uylari, milliy taomlar va hunarmandchilik xizmatlarini rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratilmoqda.

To'rtinchidan, tarixiy obyektlarni saqlash va sayyohlar oqimini tartibga solish masalalari dolzarb bo'lib bormoqda.

Beshinchidan, ziyorat turizmini ekologik va madaniy turizm bilan uyg'unlashtirishga e'tibor qaratilmoqda.

Ziyorat — ibodat maqsadidagi sayohat turi bo'lib, turizmning eng qadimgi ko'rinishlaridan biridir. Ziyorat to'g'risida avliyo mozori yonida, albatta, bir kecha qolishni anglatuvchi fikrlar ham mavjud. Ziyorat turizmining paydo bo'lganiga ming yildan oshgan bo'lib, uning rivojlanishi dunyo dinlarining paydo bo'lishi bilan bog'liq holda kechgan. Masalan, qadimgi yunon va rimliklar ma'budlar uylari hamda ibodatxonalarga ziyoratlar uyushtirganlar. Hindistonda esa azaldan odamlar u yoki bu xudolar ta'sirida muqaddas joylarga ziyoratga borib turganlar. O'rta asrlarda ziyoratning ommaviy tus olganligini XI–XII asrlarda sodir bo'lgan salib yurishlari misolida ham yaqqol ko'rish mumkin.

"Ziyorat" va "turizm" tushunchalari, garchi turli ko'rinishdagi faoliyat bo'lsa-da, ularda bir-birini bog'lab turuvchi umumiy jihatlar ham mavjud. Ayniqsa, hozirgi kunda ziyorat dunyo sayyohlik tizimida maxsus sayohat turi sifatida tushunilishi bilan ajralib turadi va xalqaro tasniflash standartlariga ko'ra, ziyorat turizmi deb qabul qilingan hamda jahon aholisi orasida shu ma'nodagi tushuncha sifatida shakllanib bormoqda. Umuman olganda, ziyorat turizmi kishilarning dunyoviy sayohati ham bo'lib, madaniy-ma'rifiy maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. U diniy ibodat joylari, tarixiy-madaniy va tabiiy obyektlarga ekskursiya shaklida, alohida odob amalining kommunikativ shakli tarzida o'tkaziladi. Buning uchun sayohatchilarning faqat diniy marosim ziyoratchilari bo'lishi talab etilmaydi.

Turizmning ushbu turi doirasida turli dinlar va aholi qatlamlari vakillari nafaqat diniy, balki tarixiy, madaniy hamda badiiy qiymatga ega joylarga tashrif buyurib, yangi bilimlar olish imkoniyatiga ham ega bo'ladilar.

Bugungi kunda "ziyorat tur", "ziyorat ekskursiyasi" kabi atamalarning ko'p qo'llanilayotganligi muqaddas joylarga tashrif buyuruvchilarni sayyoh yoki ziyoratchi sifatida tanitadi hamda obyektning muayyan funksiyani bajaruvchi maskanga aylanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, ziyorat turizmi deganda madaniy-ma'rifiy maqsadlar yo'lida e'tiqodli kishilarning ziyoratgohlarga sayohat qilishi bilan birga, ularning ushbu maskanlarga oid tarixiy bilimlarga ega bo'lishi, falsafiy dunyoqarashining kengayishi va estetik zavq olishi ham tushuniladi.

Umuman olganda, ziyoratgoh va qadamjolar insonning qadimdan o'z ajdodlari hamda avlodlari oldidagi burchini anglashi, o'tganlar xotirasini yodga olishi, o'zi yoki yaqinlari uchun yaxshiliklar tilashi va ruhiyatiga taskin topishi yo'lidagi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Qolaversa, ziyoratgoh va qadamjolar xalqning ma'lum hududdagi azaliy turmush tarzi, an'analari, urf-odatlari hamda ko'nikmalarini yuksaltirishga ham xizmat qiladi. Shuningdek, ziyoratgohlar nafaqat ma'naviy meros, balki qadimgi tarixiy yodgorliklar, masjidlar va aziz avliyolarning qadami tekkan maskanlar sifatida ham aholining hayotiy qadriyatlaridan biri hisoblanadi.

"Ziyorat" va "turizm" tushunchalari, garchi turli ko'rinishdagi faoliyat bo'lsa-da, ularda bir-birini bog'lab turuvchi umumiy jihatlar ham mavjud. Ayniqsa, hozirgi kunda ziyorat dunyo sayyohlik tizimida maxsus sayohat turi sifatida tushunilishi bilan ajralib turadi va xalqaro tasniflash standartlariga ko'ra, ziyorat turizmi deb qabul qilingan hamda jahon

aholisi orasida shu ma'nodagi tushuncha sifatida shakllanib bormoqda.

Ziyorat turizmi kishilarning dunyoviy sayohati ham bo'lib, madaniy-ma'rifiy maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. U diniy ibodat joylari, tarixiy-madaniy va tabiiy obyektlarga ekskursiya shaklida, alohida odob amalining kommunikativ shakli tarzida o'tkaziladi. Buning uchun sayohatchilarning faqat diniy marosim ziyoratchilari bo'lishi talab etilmaydi.

Turizmning ushbu turi doirasida turli dinlar va aholi qatlamlari vakillari nafaqat diniy, balki tarixiy, madaniy hamda badiiy qiymatga ega joylarga tashrif buyurib, yangi bilimlar olish imkoniyatiga ham ega bo'ladilar.

Bugungi kunda "ziyorat tur", "ziyorat ekskursiyasi" kabi atamalarning ko'p qo'llanilayotganligi muqaddas joylarga tashrif buyuruvchilarni sayyoh yoki ziyoratchi sifatida tanitadi hamda obyektning muayyan funksiyani bajaruvchi maskanga aylanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, ziyorat turizmi deganda madaniy-ma'rifiy maqsadlar yo'lida e'tiqodli kishilarning ziyoratgohlarga sayohat qilishi bilan birga, ularning ushbu maskanlarga oid tarixiy bilimlarga ega bo'lishi, falsafiy dunyoqarashining kengayishi va estetik zavq olishi ham tushuniladi.

Viloyatda turizmni rivojlantirish va u orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun nafaqat madaniy-tarixiy obidalardan to'laqonli foydalanish, balki yangi turizm yo'nalishlarini tashkil etish, mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnologik yangilashga yo'naltirilayotgan xorijiy investitsiyalarni yanada keng ko'lamda jalb etishga ham jiddiy ahamiyat qaratilishi zarur. Shu bois taqdim etilayotgan tadqiqot natijalari muhim amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqot Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyati va tarixiy obidalar, ziyoratgoh hamda qadamjolardan foydalanish holatini baholash asosida istiqboldagi imkoniyatlarini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishga qaratilgan. O'rganilayotgan tadqiqotda aynan mana shunday manzilgohlarni aniqlash va ularning mahalliy xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qashqadaryoning o'tmishda gavjum manzilgohlar maskani bo'lganligini keyingi yillarda o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar ham isbotlaydi. Masalan, vohaning janubiy qismida, Qarshi shahri tevarak-atroflarida diqqatga sazovor 123 ta yodgorlik ro'yxatga olingan bo'lib, ularning 59 tasi qadimgi davrlarga oiddir. Qashqadaryoning yuqori qismida hozirga qadar aniqlangan obidalar soni 400 dan oshiq bo'lib, ularning 100 dan ziyodi antik davrga xos deb qaraladi. Birgina Yakkabog' tumanidagi 37 ta manzilgoh antik davrda paydo bo'lgan.

Qashqadaryo tabiati yashashga qulayligi bilan qadimdan odamlarning e'tiborini tortgan. Zero, uning tog'oldi yerlarida bog'-rog'lar gurkiragan, o'rta oqimida esa sug'orma dehqonchilik rivoj topgan, quyi qismida hunarmandchilik bilan bir qatorda chorvachilik ham rivojlangan. Vohaning ko'z ilg'amas yaylovlari, bepoyon pastliklari, uzun yozi, serfayz ko'klami, to'kin-sochin kuzi va nisbatan qisqa qishi o'troq hayot manbai edi.

Umuman olganda, ziyoratgoh va qadamjolar insonning qadimdan o'z ajdodlari hamda avlodlari oldidagi burchini anglashi, o'tganlar xotirasini yodga olishi, o'zi yoki yaqinlari uchun yaxshiliklar tilashi va ruhiyatiga taskin topishi yo'lidagi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Qolaversa, ziyoratgoh va qadamjolar xalqning ma'lum hududdagi azaliy turmush tarzi, an'analari, urf-odatlari hamda ko'nikmalarini yuksaltirishga ham xizmat qiladi. Shuningdek, ziyoratgohlar nafaqat ma'naviy meros, balki qadimgi tarixiy yodgorliklar, masjidlar va aziz avliyolarning qadami tekkan maskanlar sifatida ham aholining hayotiy qadriyatlaridan biri hisoblanadi.

O'z navbatida, kishilarning ziyoratgohlarga intilishi va u yerga borganda o'zligini anglashi ajdodlar merosiga bo'lgan munosabatini ham o'zida aks ettiradi. To'g'ri, bugungi kunda ziyorat qilish tartibi va odoblari o'zgargan bo'lsa-da, munosabat hamda ruhiy intilish umumiy holatda saqlanib qolmoqda. Shu bois O'zbekistonning har bir hududiga xos boy ma'naviy merosni izlab topish, avlodlarga qoldirish va uning boqiyligiga o'z hissasini qo'shish o'rganilayotgan mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

Ziyoratgoh va qadamjolar O'zbekistonning tarixiy-madaniy merosini asrash, diniy-ma'naviy qadriyatlarini targ'ib qilish va turizm salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Ular nafaqat ziyorat maskanlari, balki xalqning tarixiy xotirasi, ilmiy merosi va milliy o'zligini namoyon etuvchi obyektlardir. Mustaqillik yillarida tarixiy obidalarni tiklash, turizm infratuzilmasini rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni jadallashtirish borasida muhim o'zgarishlar yuz berdi. Kelgusida raqamli texnologiyalardan foydalanish, mahalliy aholini turizm faoliyatiga jalb qilish orqali ziyorat turizmini yanada rivojlantirish mumkin. Eng muhimi, ziyoratgohlarni rivojlantirishda sayyohlar sonini ko'paytirish bilan bir qatorda, ularning diniy-ma'naviy ahamiyati, tarixiy haqiqiyligi va muqaddasligini saqlashga alohida e'tibor berish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. BMT Bosh Assambleyasining «Markaziy Osiyoda barqaror turizm va barqaror rivojlanish» rezolyutsiyasi — 2019-yil 19-dekabr, A/RES/74/214.URL: https://digitallibrary.un.org/record/3848667
2. UNESCO. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya — Parij, 2003-yil 17-oktabr.URL: https://ich.unesco.org/en/convention. Legal Affairs
3. «O'zbekiston va BMT keng ko'lamli hamkorlikni yanada kengaytiradi» — Shavkat Mirziyoyevning Antoniu Guterrish bilan Pekindagi uchrashuvi haqidagi rasmiy xabar.
URL: https://www.president.uz/oz/lists/view/2530